

ARAB IQTISODIY TERMINLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-270-275>

Zoyirov Abdulla

JIDU, XIM fakulteti 3-kurs talabasi

abdullazoyirov1@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Abdupattaxov Jaxongir**

Sharq tillari kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab iqtisodiy terminlarining tarixiy yuzaga kelish va uning rivojlanish jarayonlarini tahli qiladi. Tadqiqot davomida arab tilidagi iqtisodiy atamalarining diniy, huquqiy (fiqh), qishloq xo'jaligi ("Arab qishloq xo'jaligi inqilobi") va tijorat davomida paydo bo'lishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Arab iqtisodiy terminlari, islom iqtisodiyoti, fiqh, zakat, ribo, mudaroba, vaqf, Arab qishloq xo'jaligi inqilobi, islom banki.

Аннотация: В данной статье анализируется историческое возникновение и развитие арабских экономических терминов. Исследование рассматривает появление экономических терминов в арабском языке в религиозной, правовой (фикх), сельскохозяйственной («Арабская сельскохозяйственная революция») и коммерческой сферах.

Ключевые слова: арабские экономические термины, исламская экономика, фикх, закят, риба, мудараба, вакф, Арабская сельскохозяйственная революция, исламское банковское дело.

Abstract: This article analyzes the historical origin and development of Arabic economic terms. The study examines the emergence of economic terms in Arabic in the religious, legal (fiqh), agricultural ("Arab Agricultural Revolution"), and commercial spheres.

Keywords: Arabic economic terms, Islamic economics, fiqh, zakat, riba, mudaraba, waqf, Arab Agricultural Revolution, Islamic banking.

Arab iqtisodiy terminologiyasi madaniyat, din, ijtimoiy tuzum va tarixiy o'zgarishlar kesishmasida shakllangan noyob tizimdir. Ushbu tizim nafaqat moliyaviy amaliyotlarni boshqarish, balki qadimdan zamonaviy davrgacha bo'lgan mintaqaning iqtisodiy va jtimoiy hayotini tushunish uchun muhim kalitdir. Islom sivilizatsiyasining "oltin davri"da shakllanib kelgan bu terminlar deyarli butun

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikani qamrab olgan rivojlangan iqtisodiy tizim va tijorat amaliyotlarining asosiga aylanib ulgurdi.¹

Mavzuning dolzarbligi shundaki, arab iqtisodiy terminlari faqat lug‘aviy ahamiyatga ega emas, balki yuzlab yillar davomida islom iqtisodiy munosabatlari va huquqiy tizimlarining ma‘naviy-ma‘rifiy asoslarini aks etadi. Ularning ko‘pchiligi muqaddas Qur‘on va hadislarga asoslanib, keyinchalik olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ushbu terminologiya orqali nafaqat iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilgan, balki adolat, barqarorlik va ijtimoiy mas‘uliyat kabi tamoyillar ham tatbiq etilgan.

Ma‘lumotlarni to‘plash quyidagi kalit so‘zlar asosida amalga oshirildi: “Arab iqtisodiy terminlar”, “Islom iqtisodiyoti tarixi”, “iqtisodiy huquq (fiqh)”, “arab qishloq xo‘jaligi inqilobi”.. Shuningdek, quyidagi manbalardan keng foydalanildi:

Wikipedia: Arab dunyosining iqtisodiy tarixi va Islom iqtisodiyoti tarixi kabi maqolalar mavzuni keng qamrab olishga va umumiy tushunchalarga ega bo‘lishga yordam beradi.^[1]

Wikipedia: Arab qishloq xo‘jaligi inqilobi maqolasida iqtisodiy transformatsiyaning asosiy bosqichlaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarni yoritadi. Ushbu izlanishning asosiy g‘oyasi iqtisodiy terminologiya shakllanishiga kata ta‘sir ko‘rsatgan yana bir omillardan biri bu ekin va yangi texnologiyalar.²

Soundvision.com saytidagi “Islom iqtisodiy terminlarining qisqacha lug‘ati” maqolasi mavzu bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lumot beruvchi asosiy manba sifatida xizmat qildi. U terminlarning qisqacha izohlarini, ularning huquqiy asoslarini va ba‘zi hollarda zamonaviy qo‘llanilishini tahlil qilishda yordam berdi.³

MERIP: “1970-yillardagi arab iqtisodiyotlari” maqolasi zamonaviy arab dunyosida sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarishlarni, xususan, neftga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish va yangi iqtisodiy atamalarning paydo bo‘lishini chuqur tahlil qilgan bo‘lib, ushbu manba yordamida neft iqtisodiyoti va iqtisodiy liberalizatsiya (infisah) kabi zamonaviy terminlarning paydo bo‘lish jarayonini tushunish mumkin.⁴

Izlanish davomida yig‘ilgan ma‘lumotlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilindi va tizimlashtirildi:

¹ [Economic history of the Arab world - Wikipedia](https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_history_of_the_Arab_world)

(https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_history_of_the_Arab_world)

² [Arab Agricultural Revolution - Wikipedia](https://en.wikipedia.org/wiki/Arab_Agricultural_Revolution) (https://en.wikipedia.org/wiki/Arab_Agricultural_Revolution)

³ [A short dictionary of Islamic economic terms | SoundVision.com](https://www.soundvision.com/article/a-short-dictionary-of-islamic-economic-terms) (<https://www.soundvision.com/article/a-short-dictionary-of-islamic-economic-terms>)

⁴ [The Arab Economies in the 1970s - MERIP](https://www.merip.org/1981/11/the-arab-economies-in-the-1970s/) (<https://www.merip.org/1981/11/the-arab-economies-in-the-1970s/>)

- Terminlarning semantik tahlili: Soʻzning lingvistik kelib chiqishi va keyinchalik iqtisodiy-huquqiy atamaga aylanishi.
- Har bir termin yoki terminlar guruhi qaysi tarixiy davrda, qanday iqtisodiy ehtiyojlar natijasida paydo boʻlgan va rivojlanganligini aniqlash.
- Tematik guruhlarga ajratish: Terminlar qishloq xoʻjaligi, soliqlar, tijorat va moliya, ijtimoiy taʼminot kabi mavzular boʻyicha guruhlarga ajratildi.

Arab iqtisodiy terminlarining aksariyati diniy manba va huquqiy (fiqh) tizimiga borib taqaladi. Ular nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham ifodalaydi. Asosiy manbalar: Terminlarning katta qismi toʻgʻridan-toʻgʻri muqaddas Qurʼondan (“zakat”, “ribo” kabilar) yoki hadislardan olingan. Keyinchalik, islom olimlari bu tushunchalarni keng targʻibotida muhim rol oʻynab, “fiqh” islom huquqshunosligi deb nomlanuvchi murakkab huquqiy tizimni yaratilishida xizmat qildilar.

Ushbu tizimning asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi: Adolat va tenglik: “Riba” (foizdan foyda olish) qatʼiy man etilgan, chunki u adolatsizlikga olib keladi. Oʻrniga “mudaroba” (foyda va zarar boʻyicha sheriklik) va “musharoka” (hamkorlik) kabi teng munosabatlarga asoslangan shartnomalar taklif etilgan. Ijtimoiy masʼuliyat: “Zakat” (majburiy xayriya, aholining yetarli mablagʻga ega qatlami uchun) va “sadaqa” (ixtiyoriy xayriya) boylarning ijtimoiy adolatni taʼminlashdagi masʼuliyatini ifodalaydi. Aniqlik va xavfsizlik: “Gʻaror” (ortiqcha noaniqlik va tavakkalchilik) shartnomalarda man etilgan, bu esa tovar va xizmatlar bozorining barqarorligini taʼminlagan.^[3,4]

Tarixda arab iqtisodiy terminlari bir necha davr va sohalarda shakllandi va kengayib bordi.

Qishloq xoʻjaligi va yer munosabatlari bilan bogʻliq terminlar.

VIII-XIII asrlardagi “Arab qishloq xoʻjaligi inqilobi” ushbu terminologiyalar roʻyxatini sezilarli darajada boyitdi. Ushbu davrda hindiston sholi, qand lavlagi, paxta, apelsin va sabzi kabi koʻplab yangi ekinlar Yaqin Sharq va Ispaniyaga kiritildi. Bu jarayon yangi qishloq xoʻjaligi texnologiyalari (masalan, “saqiya” sugʻorish gʻildiragi) va boshqaruv tizimlarini olib keldi. Bu jarayon “muzoraa” (berdixona qilish shartnomasi), “muxabara” (oʻrinbosarlik shartnomasi) kabi shartnoma turlarining, shuningdek “xaroj” (yerga solinadigan soliq) kabi soliq terminlarining rivojlanishiga sabab boʻldi. Yer berish tizimi – “iqta” ham muhim iqtisodiy va ijtimoiy institut sifatida shakllandi.^[2,3]

Soliqlar, xayriya va ijtimoiy taʼminot terminlari

Diniy majburiyatlar va davlat boshqaruvidagi soliq va xayriya sohasida yana yangi terminologiya shakllanib bordi. Islomning besh ustunidan biri boʻlgan “zakot”

nisoblangan mol-mulkdan olinadigan majburiy badal bo‘lib, uning miqdori va taqsimlanish qat’iy qoidalar bilan tartibga solingan. Bu tushuncha ilk ijtimoiy ta’minot tizimlaridan biri bo‘lgan (boylikning ma’lum bir qismi - odatda 2,5%).

Shuningdek, “jizya” musulmon bo‘lmagan aholidan himoya va muayyan huquqlar evaziga olinadigan soliq. Jizya islom xalifaligi davrida (Rashidun, Umaviylar, Abbosiylar) davlatning muhim daromad manbalaridan biri bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik xalifa Umar ibn al-Xattob (r.a.) davrida bu tizim tartibga solingan. Keyinchalik Usmonli imperiyasida ham qo‘llanilgan, lekin XIX asrda bekor qilingan.

Boshqa soliqlar: “Ushr” (o‘nlik - qishloq xo‘jaligi mahsulotidan olinadigan soliq) va “xums” (beshlik - kon mahsulotlaridan olinadigan soliq) kabi soliqlar ham mavjud. ^[1,3]

Tijorat, moliya va bozor tartibga solish terminlari

Islomning oltin davrida rivojlangan keng tijorat tarmoqlari va pul muomalasi yangi moliyaviy institutlar va ularga oid terminlarni shakllanishiga kata xissa qo‘shdi. Moliya institutlari: “Havala” - qadimgi pul o‘tkazish tizimi, “sakk” - chek, “suffaja” - veksel kabi institutlar xalqaro tijoratni osonlashtirdi.

Sheriklik shakllari: “Mudaroba” (kapital va mehnat sherikligi) va “musharoka” (to‘liq sheriklik) kabi shartnomalar zamonaviy “kapital tashkil etish” usullarining prototipi edi. ^[3]

Ijtimoiy iqtisodiyot bilan bog‘liq terminlar

Ijtimoiy adolat va ko‘pchilik manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan terminlar mavjud. Vaqf, muayyan maqsad (masalan, masjid, maktab, kasalxonalar barpo qilish) uchun ajratilgan mulk manbai, bu ijtimoiy infratuzilmani qurish asosiy manbai bo‘lib, yuzlab yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Qard al-Hasan, foyda olinmagan, faqat asosiy qarz miqdorini qaytarish talab qilinadigan “yaxshi qarz”. Bu ijtimoiy hamdardlik va o‘zaro yordamni ifodalaydi.

Zamonaviy davrda o‘zgarishlar va yangi terminlarning paydo bo‘lishi

XX asr, xususan 1970-yillar arab iqtisodiy tilida yangi bosqichni boshladi. 1973-yildagi neft inqirozidan keyin “NAFTA asoslagan iqtisodiyot”, “neft daromadlari”, “infratuzilma loyihalari” kabi yangi atamalar kundalik foydalanishga kirib keldi. Bu davrda ko‘plab arab davlatlari neft sanoatini milliyalashtirdi. “Infitah” (liberallashtirish yoki ochilish) - chet el investitsiyalarini jalb qilish va davlat nazoratini kamaytirishga qaratilgan siyosat. 1970-yillarda boshlangan zamonaviy islom banki tizimi klassik terminlarni yangi sharoitda qayta talqin qildi. Masalan, “murobaha” (orqali sotib olish va foyda bilan sotish) klassik tijorat amaliyoti bo‘lsa-da, hozirda u bank kreditlariga islomiy alternativ sifatida keng

qo‘llanilmoqda. “Takaful” (o‘zaro sug‘urta) zamonaviy sug‘urta tizimiga islomiy yondashuvdir.^[3,4]

Arab iqtisodiy terminlari boy va murakkab tarixiy meros bo‘lib, u mintaqaning iqtisodiy hayotini tartibga solishda asosiy rol o‘ynagan. Ular o‘z ildizlarini islom dinining dastlabki davridan olgan, o‘rta asrlardagi “oltin davr”ida yanada kengayib, qishloq xo‘jaligi va tijoratning rivojlanishi bilan boyigan. XX asrda neft iqtisodiyoti va globalizatsiya kabi yangi tizimga moslashgan. Bu terminlar nafaqat iqtisodiy amaliyotlarni boshqarish, balki adolat, ijtimoiy mas‘uliyat va barqarorlik kabi asosiy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Arab iqtisodiy terminlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixini chuqurroq tushunish uchun ham muhimdir.

Xulosa

Arab iqtisodiy terminlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayonida diniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etgan, shuningdek, bu jarayon bir necha asosiy bosqichlarda namoyon bo‘lgan: dastlab, Qur‘on va hadislarga asoslangan diniy-huquqiy asoslanish davrida “zakot”, “ribo”, “sadaqa” kabi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tamoyillarni ifodalovchi terminlar shakllanib, keyinchalik fiqh orqali “mudaroba”, “musharoka” va “vaqf” kabilar kundalik hayotga tatbiq etildi. VIII–XIII asrlardagi “Arab qishloq xo‘jaligi inqilobi” davrida yangi ekinlar va texnologiyalar bilan birga “muzoraa”, “muxabara”, “xaroj”, “iqta” kabi amaliy qishloq xo‘jaligi va yer munosabatlari terminologiyasi yanada boyidi.

Nihoyat, zamonaviy davrda, xususan XX asrda neft iqtisodiyotining yuksalishi va global integratsiya natijasida “neft iqtisodiyoti”, “infitah” kabi yangi atamalar paydo bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda, arab iqtisodiy terminologiyasi statik emas, balki dinamik, har bir tarixiy bosqichning ehtiyojlariga moslashuvchan va ijodiy xususiyatga ega bo‘lib, u nafaqat tilning leksik boyligini, balki butun bir madaniyatning iqtisodiy tafakkuri, qadriyatlar tizimi va o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini anglash uchun muhim kalit hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Economic history of the Arab world - Wikipedia (https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_history_of_the_Arab_world)
2. Arab Agricultural Revolution - Wikipedia (https://en.wikipedia.org/wiki/Arab_Agricultural_Revolution)
3. A short dictionary of Islamic economic terms | SoundVision.com (<https://www.soundvision.com/article/a-short-dictionary-of-islamic-economic-terms>)

4. The Arab Economies in the 1970s - MERIP
(<https://www.merip.org/1981/11/the-arab-economies-in-the-1970s/>)

5. Jakhongir Abdupattakhov. Pilgrimage tourism: Promising directions. Problems and solutions (Ziyorat turizmi: Istiqbolli yo'nalishlar. Muammolar va yechimlar). PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF NICHE TOURISM IN UZBEKISTAN. International Conference.

2021-05-10 DOI: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1142>

6. Ж. Абдупаттахов. Ислом таълимотида соғлом овқатланиш масалалари ёритилиши. “Ислом – саломатлик тарғиботчиси” республика илмий-амалий конференцияси 26 май 2025 йил ISBN: 978-9910-9915-0-9(20), May, 2025 УЎҚ: 21/29 КБК 86.2 Д 53 107-109 б.